XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	46 132 118,1 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	37 666 101,1 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2023- yil yanvar-mart)	2 189 118,3 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni
*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha
2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)*

18 253
Mas’uliyati cheklangan jamiyat

4 627
Oilaviy korxona

612
Boshqa korxonalar

9 361
Xususiy korxona

40
Aksiyadorlik jamiyati

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 foizga oshdi









Sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 foizga oshdi





2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4942 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 1,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,6 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 10,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3%) o‘sishi kuzatildi elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 93,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,1 %) tashkil etdi.

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ***84,4*** *foizga kamaydi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 64,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 80,9 foizga kamaygan;

-fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,7 foizga oshgan;

-ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 22,9 foiz ulushni va 82,7 foiz kamaygan.

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

6,7 foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 11 148 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi. Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

-avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 72,7 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 107,8 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 19,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 101,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 117,0 foizni tashkil etdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat

777

- Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash

19

- Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

18

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

3,7 foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

131
yashash bo‘yicha xizmatlar

1 660
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 185,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

-mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 89,9 foiz ulushin tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

40 752
ro'yxatdan o'tgan
- **1 371** kichik korxonalar
- **39 381** mikrofirmalar

32 688
faoliyat ko'rsatayotgan
- **1 317** kichik korxonalar
- **31371** mikrofirmalar

2143
yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
- **-** kichik korxonalar
- **2 143** mikrofirmalar

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 171 taga ko‘paygan. Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 1 269 tadan 1 513 taga (o‘sish 244 taga), sanoatda – 1 024 tadan 1 155 taga (o‘sish 131 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 32 893 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 18 253 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdoda – 31,6 foiz, qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 25,4 foiz, sanoat – 12,2 foiz, qurilish – 11,3 foizni tashkil etdi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 256 tani tashkil etib, ulardan 179 tasi yoki 69,9 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 7,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2023- yilning yanvar- mart oylarida viloyatimizda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Qashqadaryo viloyati	**179**	**115**	**64**
G‘uzor	9	7	2
Dehqonobod	15	10	5
Qamashi	10	7	3
Qarshi	13	7	6
Koson	13	7	6
Kitob	13	7	6
Mirishkor	8	5	3
Muborak	13	6	7
Nishon	11	7	4
Kasbi	6	1	5
Ko‘kdala	4	3	1
Chiroqchi	6	5	1
Shahrisabz	4	2	2
Yakkabog‘	8	5	3
Qarshi sh.	42	34	8
Shahrisabz sh.	4	2	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 42 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,3 %), Dehqonobod 15 ta (8,4 %) Qarshi 13 ta (7,3 %), Koson 13 ta (7,3 %), Kitob 13 ta (7,3 %), Muborak 13 ta (7,3 %), Nishon 11 ta (6,1 %), Qamashi 10 ta (5,6 %) va G‘uzor tumanlarida 9 ta (5,0 %) tashkil etadi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

(2023- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan 46 132 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,5 %), Koson (7,8 %), Kitob (7,2 %), Qarshi (7,1 %), Yakkabog‘ (7,1 %), Qamashi (6,8 %), Chiroqchi (5,5 %), G‘uzor (5,4 %), Shahrisabz shahri (5,3 %), Dehqonobod (4,8 %), Kasbi (4,7 %), Shahrisabz (4,7 %), Nishon (4,7 %), Mirishkor (4,1 %), Muborak (3,2 %) va Ko‘kdala (3,1 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

(2023 yil yanvar- mart oylarida, birlikda)

2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan 2 189 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (12,5 %), Kasbi (8,8 %), Nishon (8,4 %), Yakkabog‘ (8,4 %), Koson (7,8 %), G‘uzor (7,0 %), Qarshi (6,8 %), Kitob (5,9 %), Qamashi (5,8 %), Dehqonobod (5,2 %), Mirishkor (4,4 %), Shahrisabz shahri (4,2 %), Shahrisabz (4,2 %), Ko‘kdala (4,2 %) Chiroqchi (3,7 %) va Muborak (2,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan 18 253 ta mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,2 %), Koson (10,2 %), Qamashi (8,7 %), Yakkabog‘ (8,5 %), Kasbi (6,0 %), Mirishkor (5,8 %), Qarshi (5,8 %), Nishon (5,6 %), Chiroqchi (5,2 %), Kitob (4,5 %), G‘uzor (4,1 %), Muborak (3,8 %), Shahrisabz shahri (3,5 %), Shahrisabz (2,7 %), Ko‘kdala (2,1 %) va Dehqonobod (1,3 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.